Funded by the European Union

National Erasmus+ Office-Uzbekistan

Ref. No NEO 02-12
02-dekabr 2025, Toshkent

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vaziri
Professor K. A. Sharipovga

Hurmatli Kongratbay Avezimbetovich!

Milliy Erasmus+ ofisi Erasmus+ Milliy axborot kunini 2025-yilning 11-dekabr kuni Toshkent davlat agrar universitetida o’tkazishni rejalashtirmoqda.

Axborot kunining maqsadlari quyidagidan iborat:

- 2026-yil uchun tanlovda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari ishtirok etishi mumkin bo’lgan barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumot berish (Capacity Building in Higher Education-CBHE, International Credit Mobility-ICM, Erasmus Mundus Joint Masters-EMJM, Erasmus Mundus Design Measures-EMDM, Jean Monnet Actions, Maria-Sklodowska Curie Actions);
- Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalarning aniq misollari va oldingi tanlov doirasida tanlangan yangi loyihalar mavzulari bilan ommani tanishtirish;
- Yakunlangan va amalga oshirilayotgan loyihalar natijalarini hisobga olgan holda respublika oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari asosida respublikaning barcha viloyatlardagi oliy ta’lim muassasalari vakillari o‘rtasida aloqalar o‘rnatish va yangi loyiha g‘oyalarini muhokama qilish imkoniyatini yaratib berish.
- Tajribasi kam bo’lgan yoki bundan oldin Erasmus+ loyihalarida qatnashmagan universitetlarga loyihani rivojlantirish bilan amaliy tavsiyalar berish va uslubiy yordam ko’rsatish.
- 2025-yil uchun tanlovda yutgan 6 ta CBHE loyihalari uchun tantanalari qutlash marosimi tashkil etish.

Erasmus+ Milliy Axborot kunining birinchi qismida “Samarali loyiha tayyorlash” mavzusiga urg’u beriladi. Mahalliy OTMlarning ishtiroki amaldagi CBHE loyihalar misolida ko’rsatiladi. Oliy ta’limni isloh qilish bo‘yicha Milliy ekspertlar jamoasi a’zolari (Higher Education Reform Experts- HEREs) o’z tajribalari bilan ulashadilar. Kunning ikkinchi qismida Yevropa Ittifoqining Ta’lim, Audiovizual va Madaniyat ijro agentligi (EACEA) loyihalar bo‘yicha mutaxassisi Mariya-Sol Domínges Parrado onlayn ravishda ulanib, 2026-yil uchun tanlov mezonlari to’g’risida ma’lumot beradi.

Tadbirda Yevropa Ittifoqi Delegatsiyasi, tarmoq vazirliklari, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning Toshkentdagi 11 elchixonalari vakillari, davlatimizning barcha viloyatlaridan OTM vakillari ishtiroki ko’zda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan Erasmus+ Milliy Axborot kuni uchun mas’ul vakil tayinlanishini so’raymiz. Vakil tomonidan mamlakatimizdagi barcha OTMlarga taklifnoma xati jo’natish, yangi tanlab olingan CBHE loyihalar koordinatorlarini tadbirga jalb etish, mezbon OTM (Toshkent davlat agrar universiteti) bilan aloqada bo’lish, 2026-yilgi qabul doirasida mahalliy ustuvor yo’nalishlarni aniqlash kabi amaliy yordam taqdim etilishini so’raymiz. Ishtirokchilar 8-dekabrga qadar quyida havoladan ro’yxatga o’tishlari so’raladi: https://forms.gle/rhq1TpQgkGJ9eRAi8

Usbu muhim tadbirni o'tkazishda ko'rsatayotgan yordamingiz uchun o’z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ilova: Kun tartibi 2 betda.

Dastur koordinatori A.K. Abduraxmanova

Address 7th floor, 107B Amir Temur street
International Business Centre
100084 Tashkent, Republic of Uzbekistan
Tel (+998-71)2389918
E-mail neo@erasmusplus.uz
Website www.erasmus.uz